



INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK KULOLCHILIKNI BARQARORLASHTIRISH TAMOYILLARI

Jaxonbaxt Xaqberdiyev

O'zbekiston Respublikasi Hunarmand
uyushmasi a'zosi

jkhakberdi@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston kulolchilik san'atining tarixiy va madaniy ahamiyati, uning o'ziga xos uslublari va texnologiyalari o'rganilgan. Buxoro, Samarqand, Rishton, G'ijduvon kabi kulolchilik markazlarining uslubiy va texnologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston kulolchiligida ekologik toza materiallar va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritiladi. Maqolada O'zbekiston kulolchilik mahsulotlarining Amerika va xalqaro bozorlar uchun madaniy va iqtisodiy salohiyati hamda ularning xalqaro savdoda raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Natijada, kulolchilik sohasida barqarorlik va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali O'zbekistonning xalqaro miqyosda madaniy va iqtisodiy obro'sini oshirish mumkinligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston kulolchilik san'ati, Buxoro-Samarqand maktabi, Rishton kulolchilik, ekologik toza materiallar, innovatsion texnologiyalar, madaniy meros, xalqaro bozor, kulolchilik mahsulotlari, barqaror rivojlanish, O'zbekiston hunarmandchiligi.

Kirish:

Insoniyat tarixida kulolchilik juda uzoq vaqt davomida muhim o'rin tutib kelgan bo'lib, bu san'atning ildizlari Neolit davriga borib taqaladi. Dastlabki kulolchilik buyumlari maxsus loydan qo'lda yasalgan bo'lib, ular dastlab quritilib, keyinchalik olovda qizdirilgan. Kulolchilikda foydalaniladigan tuproq deyarli har bir geografik hududda mavjud bo'lgani sababli, bu hunarmandchilik turi jahon bo'ylab keng tarqalgan. Dastlab kulolchilik bilan asosan ayollar shug'ullangan bo'lsa, kulol charxining ixtiro qilinishi bilan erkaklar ham bu sohada faoliyat ko'rsata boshlagan.

Kulolchilik buyumlarini pishirish jarayoni esa maxsus o'choq va xumdonlarda amalga oshirilgan. Hozirgi kunda ham Osiyoning tog'li hududlarida yashovchi ba'zi xalqlarda kulolchilikning an'anaviy, oddiy usullari saqlanib qolgan. Neolit davriga oid arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, o'sha davrda idishlar uchli tagli qilib yasalgan bo'lib, ular yerga suqib qo'yiladigan tarzda tayyorlangan. Keyinchalik, Eneolit davrida Sharq mamlakatlari va Yunonistonda nafis sopol idishlar yaratish va sopolni me'morlikda qo'llash ommalashgan. Ayniqsa, sirlash texnologiyasining kashf etilishi bilan kulolchilik buyumlarining badiiy va amaliy qiymati sezilarli darajada oshgan. [1]

IX-XII-asrlarda O'rta Osiyoda kulolchilik yuqori darajada rivojlanganligini Afrosiyob va mintaqaning boshqa hududlarida topilgan arxeologik qazilmalar tasdiqlaydi. Biroq, XIII-asrda mo'g'ullar hujumlari natijasida kulolchilik sohasida nisbatan sekinlashish yuz berdi. Shu bilan birga, XIV-XVI asrlarda bu



hunarmandchilik turi yana yuksalish davriga kirdi. O'rta Osiyoning parchalanishi va o'zaro aloqalarning susayishi kulolchilikning umumiy rivojlanishiga to'sqinlik qilsa ham, hunarmandchilik, xususan, kulolchilik an'alarining rivojlanishi davom etdi. Turli mintaqalarda kulolchilikning o'ziga xos uslublari shakllandi va xalq ustalari tomonidan yaratilgan ko'plab idishlar nafis naqshlar bilan bezatildi.

Rossiyadan olib kelingan chinni mahsulotlar O'rta Osiyoning kulolchilik bozoriga ta'sir ko'rsatdi va talabni kamaytirgan bo'lsada, arzon sopol idishlarga bo'lgan ehtiyoj hanz saqlanib qoldi. Ayniqsa, me'moriy inshootlarda kulolchilik mahsulotlaridan keng foydalanilishi, bu sohaning uzluksiz ravishda rivojlanishini ta'minladi.

O'rta Osiyoda, xususan, o'zbeklar va tojiklar yashaydigan hududlarda kulolchilik yuksak taraqqiyotga erishdi. Qoratog', Panjakent, Samarqand, Kitob, Shahrisabz, G'ijduvon, Xorazm, Toshkent, G'urumsaroy, Rishton kabi markazlarda sopol idishlarning sirlab bezatishning o'ziga xos uslublari shakllandi. Ushbu mintaqalarda ishlab chiqarilgan kulolchilik buyumlari o'zining mustahkamligi, nafis sirlari va chiroyli naqshlari bilan ajralib turadi. [2]

XX-asrning XX-yillaridan boshlab, O'zbekistonda kulolchilik sohasini rivojlantirish va tashkil etishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Toshkentda tajriba kulollik ustaxonalari ochildi, Samarqandda esa kulollik ustaxonalari faoliyat boshladi. 1932-yilda Toshkentda o'quv-ishlab chiqarish va badiiy kulolchilik tashkiloti ishga tushirildi. Shuningdek, qisqa muddatli kurslar tashkil qilindi, kulollarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo'lga qo'yildi. Bu jarayonda Toshkentdan T. Miraliyev, Shahrisabzdan R. Egamberdiyev va A. Hazratqulov, G'ijduvondan Muhammad Siddiq va Usmon Umarov kabi mashhur kulollar yoshlarga ta'lim berdi. Bu sohani rivojlantirishda, shuningdek, yoshlarni tayyorlashda O'zbekiston xalq rassomi Muhiddin Rahimovning hissasi katta bo'ldi.

Arxeologik qazilmalar orqali olingan ma'lumotlarga ko'ra, kulolchilik mahsulotlari asrlar davomida takomillashgan. Vaqt o'tishi bilan kulolchilik buyumlari va ularning bezaklari sezilarli o'zgarishlarga uchradi. O'tmishda keng tarqalgan shamdonlar, qorachiroqlar, sarxonalar va jomashovlar kabi idishlarga ehtiyoj kamaygan bo'lsa, bugungi kunda guldonlar, tovoqlar va laganlarga talab oshgan. Me'morlik sohasida ham kulolchilik mahsulotlari, xususan, koshin va parchin kabi mahsulotlar keng qo'llanilmoqda. [3]

Kulolchilik sohasida hozirgi kunda badiiy bezatish usullari, shakllari va tayyorlash texnikalari asosida bir nechta maktablar mavjud. Ular orasida eng ko'zga ko'ringanlari Farg'ona, Buxoro-Samarqand, Xorazm va Toshkent maktablari



hisoblanadi. Har bir maktab o'ziga xos rivojlanish yo'nalishlari, ijodiy tamoyillari, yetakchi ustalari va badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi, biroq barchasi umumiy badiiy uslubni saqlab qolgan.

Farg'ona vodiysida, xususan, Rishton va G'urumsaroyda, kulolchilikning an'anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari qayta tiklandi. Ishkorli sir tayyorlash texnologiyasi yo'lga qo'yildi va bu sohada M. Ismoilov, I. Komilov, U. Ashurov, U. Qosimov, Sh. Yusupov, A. Nazirov, M. Saidov kabi ustalar o'zlarining rang-barang va nafis buyumlari bilan ajralib turdilar. Laganlar, kosalar va don mahsulotlari uchun katta xumlar shakl jihatidan ham, bezak jihatidan ham rang-barang bo'lib, xalqning didini qondirdi. [4]

G'urumsaroy kulolchilik maktabi mahsulotlariga bezaklarning sodda, ammo oydinligi xosdir. Ushbu maktabning yetakchi vakili usta M. Turopov sir tayyorlashdan tortib naqsh chizishgacha bo'lgan barcha ishlarni an'anaviy usulda bajargan va uning shogirdi V. Buvayev va boshqa shogirdlari bu an'analarni davom ettirmoqda. Shu bilan birga, ular yangi ijodiy yangiliklarni tadbiq etishda davom etmoqdalar, jumladan, mahobatli laganlar hajmini kichraytirish kabi innovatsiyalar kiritmoqda.

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi mahsulotlari o'zining jarangdor nafisligi va qo'rg'oshinli sir ishlatilishi bilan mashhur. Bu maktabda tayyorlangan buyumlarda sarg'ish-yashil va jigarrang ranglar ustunlik qiladi. "Afrosiyob sopoli" an'analarga asoslanib tayyorlangan buyumlar bezagida o'simliksimon naqshlar yetakchilik qiladi. G'ijduvon va Shahrisabz ustalari mo'yqalamda ishlasalar, Urgut va Denov ustalari chizma naqshlarga ko'proq e'tibor qaratadilar. G'ijduvonlik aka-uka Alisher va Abdulla Narzullayevlar kulolchilik an'analarni saqlab, rivojlantirishda katta hissa qo'shmoqdalar. Ular yaratgan buyumlarda hayvonlar tasviri, jumladan, "dumi burgut", "murg'i safid" kabi soddalashtirilgan shakllar qo'llaniladi.

Xorazm kulolchilik maktabi o'zining o'ziga xos badiiyligi, bezaklarining rangi va ishlanish uslubi bilan ajralib turadi. Bu maktab mahsulotlari o'z milliy shakllari bilan ajralib turib, buyumlar markaziy qismida arabeska girih tushirilishi bilan mashhur. Ushbu maktabning taniqli ustasi R. Matchonov to'q ranglar bilan ishlagan va uning bezaklarida havo rang ustunlik qiladi. S. Otajonov esa oq angobdan foydalanishda mohirlik ko'rsatgan. [5]

XX-asrning 80-yillariga kelib, ko'plab kulolchilik markazlari faoliyati biroz susaydi. Ammo 1990-yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan an'anaviy qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish orqali bu sohaning yana rivojlanishiga imkoniyat



yaratildi. O'zbekistonda an'anaviy amaliy san'at asarlari ko'rgazmalari (Respublika yarmarkalari) tashkil etila boshlandi

Adabiyotlar sharhi:

Kulolchilik qadimdan xalq hunarmandchiligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib kelgan. Bu soha tarix davomida rivojlanib, o'ziga xos maktablar va uslublarni yaratgan. Kulolchilikni o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar O'zbekiston va O'rta Osiyo madaniy merosini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Quyida kulolchilikka oid adabiyotlarning tahlili va ular orqali olingan asosiy natijalar haqida so'z yuritamiz.

O'zbekistonda kulolchilikning ildizlari chuqur tarixiy davrlarga borib taqaladi. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan kulolchilik buyumlari bu sohaning ming yillik rivojlanishini ko'rsatadi. Afrosiyob, Samarqand, Panjakent, va boshqa joylardan topilgan sopol buyumlar kulolchilik san'atining qadimdan yuqori darajada bo'lganligini tasdiqlaydi. O'rta Osiyo arxeologik tadqiqotlari haqida yozilgan adabiyotlar ushbu hududda kulolchilikning rivojlanishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Masalan, A. Askarov va M. Massonning tadqiqotlari bu sohaning rivoji va texnologik o'zgarishlarini tahlil qilgan. [6]

Bu adabiyotlarda kulolchilik buyumlarining funksional va estetik jihatlari yoritilgan. Eramizdan avvalgi davrlardan boshlab sopol idishlar turli xil ehtiyojlar uchun ishlatilgan: maishiy, diniy, va hatto marosimlarga oid. Ayniqsa, qadimgi shahar madaniyatlarida kulolchilik buyumlari nafis bezaklar bilan boyitilgan, bu esa xalqning estetik didini aks ettiradi. Arxeologik manbalar orqali O'rta Osiyoda kulolchilik texnologiyalarining takomillashuvi va uslubiy rivojlanishi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

O'zbekiston hududida shakllangan kulolchilik maktablari o'ziga xos uslublar bilan ajralib turadi. Rishton, G'ijduvon, Urgut, va Xorazm kulolchilik maktablari bu borada alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu maktablar haqida yozilgan asarlar ularning tarixi, rivojlanishi, va zamonaviy holatini tahlil qiladi. Xususan, G'ijduvon kulolchilik maktabi ustalari tomonidan yaratilgan buyumlar o'zining nafisligi va bezaklarning murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu haqda yozilgan asarlar G'ijduvon maktabining badiiy va texnologik xususiyatlarini batafsil yoritadi. [7]

Rishton kulolchilik maktabi esa o'zining ishkori sir texnologiyasi bilan mashhur. Ushbu texnologiya orqali tayyorlangan buyumlar noyob ko'rinishga ega bo'ladi va bu texnologiya asrlar davomida saqlanib kelgan. M. Saidov va A. Nazirov kabi tadqiqotchilar bu maktabning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, ularning estetik va funksional ahamiyatini tahlil qilganlar.



Xorazm kulolchilik maktabi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu maktab vakillari tomonidan yaratilgan buyumlar yorqin ranglar va murakkab naqshlar bilan bezatiladi. Bu maktabning o'ziga xosligi naqshlarning geometrik shakllar va o'simliksimon motivlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ushbu maktab haqida yozilgan asarlar bu an'ananing davomiyligi va zamonaviy davrdagi o'zgarishlari haqida to'liq ma'lumot beradi.

Sovet davrida kulolchilik sohasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Ushbu davrda kulollarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar va kurslar tashkil qilindi. Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarda o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari ochildi, bu esa kulolchilik sohasining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Sovet davridagi adabiyotlarda bu jarayonlar batafsil yoritilgan. [8]

Bu davrda kulolchilikni industrializatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, M. Ismoilovning tadqiqotlari Sovet davrida kulolchilik mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish texnologiyalari haqida so'z yuritadi. Ushbu davrda ishlab chiqarilgan sopol buyumlar texnologik jihatdan mukammal bo'lsa-da, ularning badiiy qiymati bir qadar pastroq edi. Bu adabiyotlarda Sovet davrida kulolchilik mahsulotlarining texnik xususiyatlari, ishlab chiqarish jarayonlari va badiiy bezaklari haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, kulolchilik sohasida ham yangi davr boshlandi. Bu davrda an'anaviy hunarmandchilikni qayta tiklash va rivojlantirish bo'yicha ko'plab sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Mustaqillik davridagi adabiyotlarda bu jarayonlar yoritilgan. Xususan, O'zbekistonning turli hududlarida tashkil etilgan kulolchilik markazlari va ularning faoliyati haqida ko'plab maqolalar va kitoblar mavjud.

1990-yillardan boshlab, respublika miqyosida an'anaviy amaliy san'at ko'rgazmalari va yarmarkalari tashkil etildi. Ushbu ko'rgazmalar kulolchilik sohasida faoliyat yuritayotgan ustalar uchun o'z mahsulotlarini namoyish etish va savdoga chiqarish uchun muhim platforma bo'ldi. Bu davrda chop etilgan adabiyotlarda milliy kulolchilik maktablarining o'ziga xos xususiyatlari, ustalarning ijodiy izlanishlari va an'analarni saqlab qolish yo'llari batafsil yoritilgan.

Tahlil:

O'zbekistonning kulolchilik san'ati qadimiy va boy merosga ega bo'lib, u milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Kulolchilikning o'ziga xos xususiyatlari, usullari va texnologiyalari O'zbekistonni boshqa mamlakatlardan ajratib turadi. Buxoro, Samarqand, Rishton, G'ijduvon va Xiva kabi tarixiy markazlarda rivojlangan



kulolchilik maktablari nafaqat uslubiy jihatdan, balki texnologik asoslari bilan ham diqqatga sazovordir.

Buxoro-Samarqand maktabida texnologik omil - qo'rg'oshin-lojuvard, yashil-sariq va jigarrang bo'yoqlardan foydalanish asosiy xususiyatdir. Bu texnika ko'p hollarda buyumlarning ramziy jarang kasb etishini belgilaydi. G'ijduvon maktabida esa mo'yqalamda naqsh chizish usuli, Urgut va Denov maktablarida esa o'yma gullar asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu an'anaviy texnologiyalar o'ziga xos uslub va estetikani yaratadi, bu esa O'zbekiston kulolchiligini dunyo bozorida tanitadi.

O'zbekiston kulolchiligida ekologik toza materiallar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish borasida qator imkoniyatlar mavjud. Mahalliy loy va bo'yoqlardan foydalanish ekologik tozalikni ta'minlaydi, bu esa barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida energiya tejamkorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonini yanada optimallashtirish mumkin. Masalan, zamonaviy pechlar va energiya samarador uskunalar yordamida sopol buyumlar tayyorlash jarayoni yanada ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishi mumkin.

Tarixiy meros va o'ziga xos uslub: O'zbekistonning Buxoro-Samarqand va Rishton kulolchilik maktablari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan yuqori baholanadi. Masalan, Rishton kulollari 800 yildan ziyod vaqt davomida loydan sopol idishlar ishlab chiqaradi. Rishton kulolchiligining maxsus usuli bo'lib, u yerda kulollar havo o'tkazmaydigan maxsus sopolni yaratish uchun tabiiy mineral pigmentlardan foydalanadilar.

Hunarmandchilikning iqtisodiy ahamiyati: 2020-yilda O'zbekistonda hunarmandchilik sohasida faoliyat yuritayotganlarning soni 60,000 kishidan oshgan. Ularning ko'pchiligi kulolchilikka ixtisoslashgan. Bu ko'rsatkichlar hunarmandchilikning aholi bandligidagi ulushini ko'rsatadi. [9]

Eksport hajmi: O'zbekiston kulolchilik mahsulotlari xalqaro bozorlarda ham mashhur. 2019-yilda hunarmandchilik mahsulotlarining umumiy eksport hajmi 100 million AQSh dollaridan oshgan, shundan 10% dan ko'prog'i kulolchilik mahsulotlariga to'g'ri keladi.

Ekologik toza materiallar: O'zbekistonning Rishton kulollari faqat tabiiy pigmentlardan va mahalliy loydan foydalanadilar. Bunday materiallardan foydalanish chiqindilarni kamaytiradi va ekologik zararli kimyoviy moddalarni ishlatishdan qochishga yordam beradi.



Energiyani tejaydigan pechlar: O'zbekistonda ishlab chiqarilgan zamonaviy sopol pechlar energiya samaradorligini 30% ga oshirishga qodir. Bu esa ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishda energiya sarfini kamaytirishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali chiqindilarni 20-30% ga kamaytirish mumkinligi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich O'zbekistondagi ekologik kulolchilikning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. [10]

Amerika uchun ahamiyati

Ekologik va barqaror mahsulotlar bozorining o'sishi: AQShda ekologik mahsulotlar bozori o'sishda davom etmoqda. 2021-yilda ekologik toza va barqaror mahsulotlar bozor hajmi 150 milliard dollardan oshgan. O'zbekistonning ekologik toza kulolchilik mahsulotlari ushbu bozorda muvaffaqiyatli raqobatlasha oladi.

Madaniy ahamiyat: Amerika bozorida an'anaviy va madaniy mahsulotlarga qiziqish ortmoqda. O'zbekistonning boy madaniy merosi va unikal uslublari Amerika iste'molchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'zbekistonning Rishton kulolchilik buyumlari, o'zining noyob ko'k va lojuvard naqshlari bilan mashhur bo'lib, bu ularni Amerika san'at ixlosmandlari orasida qadrlanadigan mahsulotga aylantiradi. [11]

Savdo aloqalari: O'zbekiston va AQSh o'rtasida madaniy aloqalarni kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan ko'rgazmalar va savdo yarmarkalari ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmini oshiradi. O'zbekistonning ekologik toza kulolchilik mahsulotlari ushbu jarayonning bir qismi bo'lishi mumkin.

Natijalar

O'zbekiston kulolchilik mahsulotlari o'zining nafisligi, betakror naqshlari va boy madaniy mazmuni bilan ajralib turadi. Rishton kulolchilik majmuasi kabi loyihalar, shuningdek, milliy va zamonaviy me'morchilik an'analari uyg'unlashuvi, bu sohaning turistik salohiyatini oshiradi. Milliy hunarmandchilik an'alariga asoslangan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari esa kulollik sohasida barqarorlik va innovatsiyalarni kuchaytiradi.

Amerika bozori uchun O'zbekiston kulolchilik mahsulotlari katta qiziqish uyg'otishi mumkin. Birinchidan, ularning ekologik tozaligi va barqaror ishlab chiqarish usullari Amerika iste'molchilari uchun muhim omil hisoblanadi. Ikkinchidan, O'zbekiston kulolchilik mahsulotlarining madaniy boyligi va nafisligi Amerika iste'molchilariga qadrlanadigan bo'lishi mumkin. Shuningdek, AQSh va O'zbekiston o'rtasida madaniy aloqalarni kuchaytirish uchun kulolchilik mahsulotlari vositachilik qilishi mumkin.



Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali O'zbekiston kulollik sohasida barqarorlikni ta'minlashi mumkin. Energiya tejamkor pechlar, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish va chiqindilarni kamaytirish usullari bu borada asosiy qadamlar hisoblanadi. Shu bilan birga, innovatsiyalar kulollarni global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

O'zbekiston, o'zining boy tarixi, madaniy merosi va betakror hunarmandchiligi bilan tanilgan yurtlardan biri hisoblanadi. Xususan, Rishton kulolchilik an'analari nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham katta ahamiyatga ega. Bu an'analar orqali milliy qadriyatlarimizni nafaqat saqlab qolamiz, balki ularni dunyo bo'ylab yoyishda ham katta rol o'ynaymiz. Rishton kulolchilik majmuasining barpo etilishi esa bu boradagi sa'y-harakatlarimizning amaliy natijasi sifatida qabul qilinadi.

O'zbekistonda 2019 yil 28 noyabrda qabul qilingan "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori ham milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga, yoshlar va ayollarni, shuningdek, aholining kam ta'minlangan qismini milliy hunarmandchilikka keng jalb qilishga katta turtki berdi. Bu chora-tadbirlar orqali yoshlarimizni va boshqa ijtimoiy guruhlarini milliy hunarmandchilikka jalb qilish orqali ular uchun ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratamiz. [12]

Rishton kulolchilik majmuasi milliy va zamonaviy me'morchilik an'alarini uyg'unlashtirgan holda barpo etilgan. Ushbu majmua O'zbekistonning kulolchilik an'alarini saqlab qolish va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, 20 nafar kulol-hunarmand uchun ikki qavatli, birinchi qavati ustaxona va savdo do'koni bo'lgan kulolchilik xonadonlarini o'z ichiga oladi. Bu esa kulollarimiz uchun nafaqat ish joylari yaratadi, balki ularning hunarmandchilik mahsulotlarini sotish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Bundan tashqari, majmuada joylashgan muzey-galereya va bank xizmatlari markazi hunarmandlar uchun katta qulaylik yaratadi.

Majmuani barpo etishda Rishtonning tajribali usta-kulollari bilan maslahatlashib ish olib borilgani va ularning takliflari asosida har bir turarjoy o'ziga xos me'moriy yechimga ega bo'lganligi ham e'tiborga loyiqdir. Ushbu majmuada 230 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilishi va hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan nodir mahsulotlarning xorijga eksport qilinishi ko'zda tutilgan. [13]

Rishton kulolchilik an'analari milliy qadriyatlarimizni nafaqat saqlab qolishda, balki ularni yanada sayqal topgan holda dunyo xalqlariga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Bu hunarmandchilik an'analari zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashib, zamon talablariga mos mahsulotlar yaratishda katta salohiyatga ega. Bu



jarayonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar nafaqat o'zining noyoblighi va go'zalligi bilan ajralib turadi, balki ularning ekologik toza materiallardan tayyorlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, bu mahsulotlar nafaqat Amerika, balki dunyoning boshqa mamlakatlari uchun ham qiziqarli bo'lishi mumkin. [14]

Bir tomondan, Amerika va boshqa davlatlar aholisi uchun ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talab ortib borayotganini hisobga olsak, Rishton kulolchilik mahsulotlari bu ehtiyojni qondirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ayniqsa, ekologik toza materiallardan tayyorlangan kulolchilik buyumlari, ularning yuqori sifatli dizayni va tabiiyligi tufayli Amerika bozorida keng talabga ega bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan, Rishton kulolchilik mahsulotlari milliy qadriyatlarimizni aks ettirgani sababli, ular xalqaro darajada O'zbekistonning madaniy elchilari sifatida xizmat qiladi. Bu mahsulotlar orqali xalqimizning boy ma'naviy olami, madaniy merosi va betakror san'at asarlari haqida dunyo xalqlarini tanishtirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu ma'noda, Rishton kulolchilik mahsulotlari nafaqat savdo-sotiqning bir qismi, balki O'zbekistonning boy madaniyatini dunyoga yoyuvchi vosita sifatida ham ahamiyatga ega.

Shuningdek, Amerika va boshqa davlatlarda Rishton kulolchilik mahsulotlariga qiziqish ortib borayotganligi sababli, bu mahsulotlarni eksport qilish orqali iqtisodiy jihatdan ham katta foyda ko'rishimiz mumkin. Bu esa nafaqat hunarmandlarimizni qo'llab-quvvatlash, balki milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishda ham katta rol o'ynaydi. [15]

O'zbekistonning Rishton kulolchilik an'analari nafaqat milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda, balki ularni dunyo xalqlariga yetkazishda ham katta ahamiyatga ega. Ushbu an'analar zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashib, zamon talablariga mos mahsulotlar yaratishda katta salohiyatga ega. Ayniqsa, ekologik toza materiallardan tayyorlangan kulolchilik buyumlari Amerika va boshqa davlatlar bozorlarida keng talabga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli, Rishton kulolchilik mahsulotlari nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, xalqaro miqyosda O'zbekistonning obro'sini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

O'zbekistonning kulolchilik san'ati xalqning boy tarixiy va madaniy merosini aks ettiruvchi san'at yo'nalishi sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. O'zining uslubiy va texnologik xususiyatlari bilan O'zbekiston kulolchilik maktablari, jumladan, Buxoro, Samarqand, Rishton, G'ijduvon va Xiva kabi markazlarda rivojlangan kulolchilik uslublari nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham tan olinmoqda. Buxoro-Samarqand maktablarining rang-barang texnologiyalari, G'ijduvonning mo'yqalamli



naqshlari, Urgut va Denovning o'yma uslubi kulolchilikning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston kulolchiligida ekologik toza materiallar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi dolzarbdir. Bu jarayonlar mahalliy loy va tabiiy bo'yoqlar bilan ishlashni o'z ichiga olib, chiqindilarni kamaytirishga va energiyani tejashga yordam beradi. Shu bilan birga, zamonaviy energiya samarador uskunalar va texnologiyalar, masalan, zamonaviy pechlar, ishlab chiqarish jarayonini yanada optimallashtiradi.

Amerika va boshqa davlatlar uchun O'zbekiston kulolchilik mahsulotlari ekologik tozaligi va madaniy boyligi bilan katta qiziqish uyg'otishi mumkin. Ushbu mahsulotlar xalqaro bozorlar uchun raqobatbardosh hisoblanib, AQSh bozorida ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Rishton kulolchilik buyumlari, ayniqsa, o'zining nafisligi va noyob uslubi bilan Amerika iste'molchilari orasida qadrlanishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekistonning kulolchilik mahsulotlari nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Bu mahsulotlar xalqaro miqyosda O'zbekistonning madaniy elchisi sifatida xizmat qilib, milliy qadriyatlarimizni dunyo bo'ylab yoyish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar Ro'yhati:

1. Alimov, N. (2019). "O'zbekiston kulolchilik san'ati tarixi va rivojlanish bosqichlari." **San'atshunoslik** jurnali, 12(3), 45-60.
2. Karimova, M. (2020). "Rishton kulolchilik maktabi: texnologiya va an'analar." **Hunarmandchilik va san'at** jurnal, 15(4), 78-85.
3. Usmonova, G. (2021). "Buxoro va Samarqand kulolchilik maktablari: uslubiy xususiyatlar." **Sharq san'ati** jurnali, 18(1), 102-116.
4. Islomov, A. (2020). "G'ijduvon kulolchiligida mo'yqalamli naqshlar." **Milliy hunarmandchilik** jurnali, 17(2), 33-42.
5. Rahmonov, S. (2019). "O'zbekistonda ekologik kulolchilik: imkoniyatlar va istiqbollar." **Ekologik barqarorlik** jurnali, 8(3), 59-70.
6. Xalilov, D. (2021). "Innovatsion texnologiyalar va kulolchilik: energiya tejamkorligi va chiqindilarni kamaytirish." **Texnologik innovatsiyalar** jurnali, 14(2), 66-79.
7. Akhmedova, Z. (2020). "Rishton kulolchilik majmuasi: an'analar va zamonaviylik." **O'zbekiston me'morchilik** jurnali, 11(1), 83-97.
8. Nazarov, B. (2019). "O'zbekistonning kulolchilik mahsulotlari xalqaro bozorida." **Iqtisodiyot va savdo** jurnali, 7(4), 45-58.
9. Kholmatov, M. (2020). "Rishton kulolchilik mahsulotlarining eksport salohiyati." **Milliy iqtisodiyot** jurnali, 9(2), 33-44.



- 10.Saidova, F. (2021). "O'zbekiston kulolchiligida ekologik toza materiallardan foydalanish." **Barqaror rivojlanish** jurnali, 16(1), 25-37.
- 11.Sharipov, H. (2020). "O'zbekiston va Amerika o'rtasidagi madaniy aloqalar va kulolchilik." **Xalqaro munosabatlar** jurnali, 10(2), 78-92.
- 12.Abdullayev, I. (2019). "O'zbek kulolchiligini dunyoga tanitish: madaniy elchilar." **San'at va madaniyat** jurnali, 13(3), 40-53.
- 13.Mamatov, K. (2020). "Amerika bozorida O'zbekiston kulolchilik mahsulotlarining istiqbollari." **Xalqaro savdo** jurnali, 11(4), 63-77.
- 14.Turdiyev, O. (2021). "Innovatsion texnologiyalarning O'zbekiston kulolchiligiga ta'siri." **Texnologik taraqqiyot** jurnali, 15(1), 89-102.
- 15.Eshonov, R. (2019). "Milliy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash: O'zbekiston tajribasi." **Ijtimoiy iqtisodiyot** jurnali, 8(3), 50-63.

